

## SOF PEYZAJ LIRIKASIDA BADIY IFODA

Ma`muraxon Madaminova,

ADU tayanch doktoranti, ADPI o`qituvchisi

E-mail: mamuraxonmadaminova6@gmail.com

Tel.: (99) 69 39 64

Badiiy asar va uning qonuniyatlariga befarq bo`lmagan yunon faylasuflaridan biri Arastu ijod namunalarining barchasi o`xshatish (mimesis) san`atidan o`zga narsa emas; ular o`zaro uch jihatdan: (1) tasvirlashning turli vositalari bilan, (2) nima tasvirlanayotgani bilan, (3) rang-barang o`xshatish usullari bilan farqlanishi<sup>1</sup>, haqida o`zining “Poetika” asarida yozib qoldirgan edi. Lirk asarlarni o`rganish jarayonida ularga xos spetsifistik xususiyat – kechinmaning asosiy tavsif markazida turishi bu turdag'i barcha janrlarda umumiyl qonuniyat tarzida belgilanishiga guvoh bo`lamiz. Xususan, tavsifiy lirikaning faol yo`nalishlaridan sanalgan peyzaj lirkasi ijod jarayoni paydo bo`lgandan to bugungi kunga qadar, o`quvchiga estetik zavq berish barobarida lirk subyektning tabiat tasviri vositasida hissiy munosabatini ifodalash uchun ham xizmat qiladi.

Adabiyotshunoslik lug`atlarida “peyzaj” atamasiga (peyzaj – fr. paysage – joy, yurt) adabiy asardagi voqealar kechuvchi ochiq makon (yopiq makon – interyer) deb izoh beriladi. Odatda, she`rdagi tabiat yoki inson tomonidan yaratilgan xiyobon yoki shahar ko`chasi tasviri ham peyzaj lirkasini yuzaga keltiradi. Demak, faqatgina tabiat emas, ochiq makondagi o`rin-joy (shahar, xiyobon...) ham peyzaj uchun asos bo`la oladi.<sup>2</sup> O`zbek she`riyati tarixida obyekt sifatida qahramon meditatsiyasidan o`zga tashqi olamni tasvirlash, asosan, XX asr boshlaridan urchga kirdi. Unga qadar ham mumtoz adabiyotda yuqoridagi sifatlarni o`zida jamlagan asarlar yaratilgan, ammo tabiat tasviri orqali muallifning real vogelikka munosabati ifodalangan keng ko`lamdagi asarlar o`tgan asr she`riyatida yaqqol bo`y ko`rsatadi. Misol uchun:

Uchib o`tdi **sayyora** g`ozlar  
**Sariq** sado bo`g`ildi, tindi.  
 Izg`ib qoldi **qora** ayozlar,  
 Katta qorlar yog`adi endi,  
**Bo`z** tumanlar yoyilib oqar,  
 G`arq qilgancha o`rmon etagin.  
 Endi olis bahorga qadar  
 Cho`ziladi qishning ertagi<sup>3</sup>

Shavkat Rahmon qalamiga mansub ushbu she`rda kuzning so`nggi kunlari berilib, badiiy ifoda ta`sirchanligini oshirish uchun urg`ulanishi lozim nuqtalar sifatlashlar bilan boyitiladi. Bu

<sup>1</sup> Arastu. Axloqi Kabir. Tarjimonlar Zohir A`lam va Urfon Otajon. –Toshkent: Yangi asr avlod, 2024. Б – 23

<sup>2</sup> Қурунов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Ташкент: “Академнашр”, 2010. Б – 220

<sup>3</sup> Раҳмон, Шавкат. Абадият оралаб; тўплаб, нашрга тайёрловчилар: Г.Раҳмонова, О.Толиб; масъул муҳаррир И.Мирзо. – Ташкент: “Моворууннахр”, 2012. Б – 50.

orqali, o`quvchi holat tasvirini ayonroq tasavvur etadi. Yoki “Osmon to`lib turnalar uchar, muncha ma`yus turna unlari. Uchib ketar, turnalar emas, haroratli, yaxshi kunlarim” misralarini o`qigan she`rxon qalbida ham kuz faslining hazin kayfiyati paydo bo`ladi.

Asarlarda peyzaj bajaruvchi birlamchi vazifa voqealar kechayotgan joy va vaqt haqida tasavvur berishdir. Bundan tashqari, u polifunksionallik xususiyatiga ega.. Jumladan, peyzaj qahramon ruhiyatini ochish vositasi sifatida keng qo`llaniladi<sup>4</sup>:

Ko`kmak dala, osmon **qoraygan**

Cho`kayotganday bulut karvoni...

O`sib borar **qop-qora** besha

Sovib borar yo`llar tuprog`i...

Yuqorida lirik qahramonning og`ir ruhiy holati tasvirga ko`chgan bo`lsa,

**Oq** bulutlar yerga qo`ndimi, mo`jizalar bo`ldimi sodir?

Oh, naqadar ajoyib tunda **oq** mash`ala ekilgan vodiy...

Yechib **oppoq** ko`ylagini vaqt, kiydi **yashil** gulli ko`ylagin.

Yurak, uyg`on, kapalak kabi chechaklarga qo`nib o`ynagin...

misralarida peyzaj tasviri shodliklarga to`lgan ranggin tuyg`ulari bayoni uchun xizmat qilgan. Sof peyzaj lirikasi deganda, tasvirning ramziy yoki majoziy mazmun kasb etmay, faqat estetik funsiya bajarilishi tushuniladi. Yana bir talab ham borki, bu turdag`i she`rlarda to`laqonli manzaraning chizilishi taqozo etiladi. Masalan, Sh.Rahmonning “Manzara” she`ri fikrimiz isboti uchun ayni mos keladi:

Oq sukunat porlar saharda,

kun nurida yonib, yaraqlab,

chopib kirar sovuq shaharga

yalangoyoq yashil daraxtlar.

Bir zumdayoq devorlar oshib,

ko`chalarga tarqab ketdilar.

Darchalarga yuzlarin bosib,

bolalarday qarar kattalar.<sup>5</sup>

Tong otish tasvirining go`zal o`xshatishlar bilan berilishi she`rni o`qishliliginini ta`minlagan. Ijodkorga xos usullardan yana biri – jonlantirish san`ati (chopib kirgan sovuq, yalangoyoq daraxtlar, devorlar oshib tarqab ketgan sukunat) orqali “qotirib qo`yilgan” lahzani kutilmagan topilmalar ifodasi bilan bezaydiki, kitobxon hech bir qiyinchiliksiz tong otish tasvirini tasavvurida jonlantiradi. Lirik subyekt ruhiyatidan o`tkazib berilgani uchun ham o`sha kayfiyatning suratiga aylanadi.

Qisqa qilib aytganda, peyzaj lirikasidagi badiiy ifoda usuli xilma-hil bo`lib, shoir ularni qo`llash orqali ramziy yoki ramziy bo`lmagan sof peyzaj janrini yaratadi.

<sup>4</sup> Қурунов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: “Академнашр”, 2010. Б –220

<sup>5</sup> O`sha to`plam – 107-b.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. D.Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. –Toshkent: Akademnashr, 2018. – 480 б
2. Н.Д.Тамарченка. Поэтика: слов, астуал, терминов и понятний. -М.: Издательство Кулагиной; Интранда, 2008. –385 с.
3. Куронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик лугати. – Ташкент: “Академнашр”, 2010. –400 б.
4. Раҳмон, Шавкат. Абадият оралаб; тўплаб, нашрга тайёрловчилар: Г.Раҳмонаева, О.Толиб; масъул мухаррир И.Мирзо. –Ташкент: “Мовороуннахр”, 2012. – 384 б.